



KONCHILAR HAYOTI

Gazeta 1991-yildan chiqa boshlagan

№5 (815), 2026-yil 16-mart

facebook.com/nkmkofficial

t.me/ngmkofficial

instagram.com/nkmk.official

www.ngmk.uz



■ Mukofot muborak!

SARALANGANLAR SAFIDA BO‘LISH BAXTI

Mamlakatimizda aziz va mo‘tabar ayollarimiz nafaqat oilada, balki davlat va jamiyat hayotida ham alohida hurmat va e‘tiborga sazovor. Ular Yangi O‘zbekistonni barpo etish, xalqimiz farovonligini yuksaltirishda namuna bo‘lib, oilalarda ma‘naviy-axloqiy muhitni mustahkamlashga, yosh avlodni ona-Vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashga katta hissa qo‘shmoqdalar. Shu bois, yurtimizda fidoyi mehnat qilib, ijtimoiy hayotda namunal faoliyat olib borayotgan, oilasi va jamoasi uchun ibrat ko‘rsatib kelayotgan xotin-qizlar doimo e‘tirofda, e‘zozda.

8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni arafasida mamlakatimizda xotin-qizlarga ko‘rsatilayotgan yuksak ehtirom va e‘tibor yana bir bor o‘z ifodasini topdi. Prezident Farmoniga muvofiq, turli sohalarda samarali mehnat qilib kelayotgan fidoyi ayollar davlat mukofotlari bilan taqdirlandilar. Jumladan, “NKMK” AJ vakili – 1-gidrometallurgiya zavodi kran mashinisti Oliyabrigitimova “Do‘stlik” ordeni bilan mukofotlandi.

Oliya oddiy oila unib-o‘sd. Ota-onasi ko‘nglini o‘ksitmay voyaga yetkazib, Konimex qishloq xo‘jalik kasb-hunar kollejida o‘qitdi, keyin turmushga berdi. U ilk faoliyatini Konimex tumani veterinariya laboratoriyasida boshladi. Keyinchalik, Markaziy kon boshqarmasi ta’sarrufidagi 20-sonli bolalar bog‘chasida tarbiyachi bo‘lib ishlar ekan, yosh qalblarga mehr ulashish, sabr, mas’uliyat kabi fazilatlarni fitratiga joyladi. So‘ngra 2-gidrometallurgiya zavodi ma’danni tayyorlash sexida farrosh bo‘lib ishladi. Bu vazifa oddiydek tuyulsa-da, u har qanday ishning katta-kichigi bo‘lmasiligini qalban his etdi. Vaqt o‘tib, u o‘zini yanada mas’uliyatliroq sohada sinab ko‘rishga qaror qildi hamda MKB O‘quv

markazida tahsil olib, kran mashinisti kasbini egalladi. Ishlab chiqarish muhiti, temir texnikalar orasidagi mehnat, qat’iy tartib-intizom uning irodasini charxladi. Qariyb o‘n yil 2-gidrometallurgiya zavodida shu kasbda ishlab tajriba orttirgan Oliyabrigitimova so‘nggi besh yilda faoliyatini “Qizilqum” kon boshqarmasi kon va texnologik uskunalarini ta’irlash sexida yuk ko‘tarish mexanizmlarini ta’irlash va xizmat ko‘rsatish uchastkasida davom ettirmoqda. U 18 metr balandlikda, 80 tonnagacha yuk ko‘tarish quvvatiga ega ko‘priklarni mohirlik bilan boshqarib, texnologik uskunalarining asosiy qismlarini o‘rnatish, tushirish, qayta yuklash va tashish hamda gidrometallurgiya kompleksining kapital ta’irlash jarayonidagi murakkab ishlarni bajarib kelyapti. Texnologik sex tegirmonlarini ta’irlash ishlari hamda hamda hamkasblari Oliyabrigitimova o‘z ishini ustasi, jonkuyar xodim sifatida yaxshi bilishadi.

Ulkun texnikani boshqarish, albatta mas’uliyat, dovyuraklik va diqqatni talab qiladi. Fikr va harakatni jamlash, har bir



jarayonni ehtiyotkorlik va o‘ta e‘tibor bilan bajarishga to‘g‘ri keladi. Buni chuqur his qilgan O.ibrigitimova kasbiy bilim va tajribasiga tayangan holda, ishga jonkuyarlik va intizom bilan yondashadi.

Bir paytlar u yaqinlariga mehnati orqali jamoada munosib o‘rin egallash, kasbining ustasiga aylanish va yurti ravnaqiga hissa qo‘shish niyati borligini aytgan edi. Ana shu ezuq intilishlari uni mas’uliyat bilan mehnat qilishga chorladi. Baland kranlarni mahorat bilan boshqarib, ishlab chiqarish rejalarini o‘z vaqtida o‘rtig‘i bilan bajarish orqali u jamoasi ishonchini qozondi, rahbariyat e‘tiboriga tushdi.

Oliya IBRAGIMOVA, “Do‘stlik” ordeni sohibi:

– Davlat mukofotiga sazovor bo‘lganim haqidagi xushxabarni eshitgan kunim hayotimdagi eng unutilmas lahzalardan biri bo‘ldi. Xushxabardan yaqinlarimning quvonchini ta’irlab berishga so‘z ojiz. Onamning ko‘zlaridagi faxr va shukronalik yoshlari, turmush o‘rtog‘imning quvonchidan aytgan iliq so‘zlari qalbimni to‘lqintirdi. Farzandlarim esa “Onajon, siz bilan faxrlanamiz!” deya bag‘rimga otiganida, barcha mashaqqatlarim bir zumda unutildi. O‘sha kuni o‘zimni eng baxtli ayollardan biri sifatida his qildim. Mukofotlarni topshirish marosimida sahnaga taklif etilgan daqiqalarim hali-hanuz ko‘z oldimda. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev qo‘lidan mukofot olish – men uchun ulkan sharaf va beqiyos iftixor bo‘ldi. Shu lahzada kran kabinasida o‘tgan umrim, jamoam ishonchi – barchasi bir zumda xayolimdanda o‘tdi. Prezidentimizning samimiy tabrigi va iliq so‘zlari qalbinga kuch va ishonch bag‘ishladi. U kishining qo‘lidan mukofot olar ekanman, bu e‘tirofni faqat shaxsiy yutug‘im emas, balki “Qizilqum” kon boshqarmasi jamoasi, shuningdek, men bilan yelkama-yelka mehnat qilayotgan hamkasblarim mehnatining qadrlanishi, deb qabul qildim. Qalbimda shukronalik va mas’uliyat tuyg‘ulari jo‘sh urdi. Bunday yuksak ishonchga munosib bo‘lishni, yurtimiz taraqqiyoti va Yangi O‘zbekiston kelajagi yo‘lida yanada siqildildan mehnat qilishni burchim, deb bilaman.

E‘tiborli jihati shundaki, u nafaqat soha fidoyisi, balki ibratli oilaning saranjom bekasi, farzandlarining mehribon onajonidir. O.ibrigitimovaning turmush o‘rtog‘i Xurshid Karimov Markaziy kon boshqarmasi 9-avtobaza avtomobil haydovchisi. Qizi Sabina va o‘g‘li Sardorbeklar Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti talabalari.

Dildora KARIMOVA.

8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni arafasida yurtimiz ayollarining mehnati munosib e‘tirof etilishi an‘anaga aylangan. Bu bayram kunlari nafaqat qutlovlar, balki ayollarning fidokorona mehnatini qadrlash, ularni rag‘batlantirish bilan ham ahamiyatlidir.

KO‘NGLIM TOG‘DEK KO‘TARILDI...

Navoiy kon-metallurgiya kombinati tizimida ham har yili ushbu ayyom ko‘tarinki ruhda nishonlanib, xotin-qizlar mehnatiga yuksak baho beriladi. Joriy yil ham qutlug‘ bayram ajoyib xushxabarlar bilan boshlandi. “Qizilqum” kon boshqarmasi “Qoraqo‘ton” koni 1-tog‘kon ishlarini yer osti usulida qazib olish uchastkasi lampachisi Hafiza Boymurodovaning “Mo‘tabar ayol” ko‘krak nishoni bilan taqdirlanishi kombinat jamoasi va hamkasblarini quvonitirib yubordi. Qariyb yigirma yildan buyon kombinat tizimida halol va fidokorona mehnat qilib kelayotgan bu oddiy kasb egasining xizmatlari davlat darajasida e‘tirof etilgani yurtimizda xotin-qizlarga bo‘lgan yuksak ehtirom va e‘tiborning yorqin ifodasidir.

Hafiza Boymurodova Samarqand viloyatining Paxtachi tumanida mehnatkash oilada dunyoga keldi. Uning bolaligi qishloq muhitida, mehnat qadrlanib bilgan oilada o‘tdi. Otasi traktorchi bo‘lib ishlagan, onasi esa kolxozda mehnat qilgan. Hafiza opa bolaligidan ota-onasining mehnatini ko‘rib ulg‘aydi. Dala ishlaridagi mashaqqat, kundalik tikchilik tashvishlari uning qalbida mehnatga hurmat tuyg‘usini shakllantirdi. U har doim ota-onasiga yordam berib, uy-ro‘zg‘or ishlarini bajarar, shu orqali hayotning turli saboqlarini o‘rganib borardi.



Ota-onasining mehnatsevarligi va hayotiy saboqlari uning keyingi hayot yo‘lida mustahkam tayanch bo‘ldi. Ular farzandlariga “Insonni ulug‘laydigan narsa — halol mehnat” deb qayta-qayta ta’kidlashardi. Hafiza Boymurodova ham ana shu tarbiya tufayli hayotdagi har bir ishga mas’uliyat bilan yondashishni o‘rgandi. Bugun u nafaqat mehnat jamoasida, balki oilasida ham mehribon ona, g‘amxo‘r rafiq sifatida qadr topdi.

Davomi 2-betda ►

■ Mehnat jamoalarida

ISLOHOTLAR – TARAQQIYOT POYDEVORI

Yurtimizda so‘nggi yillarda yangi loyihalar hayotga tatbiq etilmoqda. Istiqbolli loyihalarining amalga oshirilishi mamlakatimizning iqtisodiy salohiyatini yanada oshirishga asos bo‘lyapti. Yangi korxonalar hamda qo‘shimcha quvvatlar ishga tushirilishi natijasida Zarafshon ta’irlash-mexanika zavodi mahsulotlariga bo‘lgan talab ortib bormoqda.



Markaziy kon boshqarmasi tarkibidagi har bir bo‘linmaning tog‘-kon sanoatida o‘z o‘rni bor. Boshqarmaning asosiy va yordamchi bo‘linmalari uchun zarur jihozlarni o‘z vaqtida, sifatli ta’irlash va tayyorlab berish maqsadida bundan 59 yil muqaddam “Beshopan” ishlab chiqarish maydonida tashkil topgan Markaziy ta’irlash-mexanika sexi 2024-yilda zavod maqomiga ega bo‘ldi. Zavod jamoasi kon boshqarmasi ishlab chiqarish quvvatlari bir maromda ishlashi uchun kon jihozlarini tez va sifatli ta’irlash ishlari o‘z vaqtida bajarib kelmog‘da. Yuqori texnologik talablar darajasidagi mashina detallaridan tortib, katta lo‘chamli metall qurilmalargacha ishlab chiqarilayotgan, texnologik jihozlar, elektr dastgohlari ta’irlanayotgan mazkur korxonada o‘tgan yili 270 milliard so‘mlik mahsulot tayyorlandi.

Bugungi kunda Zarafshon ta’irlash-mexanika zavodi tarkibida mexanik yig‘uv sexi, temirchilik-presslash, elektr ta’irlash, metall konstruksiyalarini ishlab chiqarish, detallarni payvandlash usuli bilan ta’irlash, gaz to‘ldirish, ixtisoslashtirilgan ta’irlash-montaj

uchastkalari hamda zavod mexanigi, zavod energetigi xizmatlari bo‘linmalari faoliyat ko‘rsatadi. Zavodda yosh kadrlarni tarbiyalashga alohida e‘tibor qaratilyapti. – So‘nggi besh yilda yangi ish o‘rinlari yaratilib, Zarafshon sanoat kasb-hunar texnikumi hamda Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetini tugatgan yosh mutaxassislar ishga qabul qilindi, – deydi temirchilik-presslash uchastkasi boshlig‘i Umidjon Rajabov.

Uchastkada metallarga qizdirib va temir ishlav berilib, konveyerlariga 15 dan ortiq turdagi roliklar tayyorlanadi. Anvar Mardonov uchastkaning tajribali temirchilaridan biri. Mana qariyb 30 yildirki, u bolg‘a va pressda metall qurilmalarga shakl berib kelmog‘da.

– Harbiy xizmatdan qaytganimdan so‘ng ishga kirish maqsadida hujjatlarimni Markaziy kon boshqarmasiga topshirib, oilamiz temirchilar sulolasi bo‘lganligi bois shu kasbni tanlaganimni aytdim. Bolg‘alash mashinalari va presslarda temirchi kasbiga ishga qabul qilishdi. Yoshligimdan temirda ishlash sirlarini o‘rgangan bo‘lsamda, bu korxonaga kelganimda biroz hayajon,

qo‘rquv bosdi. Chunki xonadonimizda oddiy, mahalliy asbob-uskunalaridan foydalanganmiz. Bu yerda esa katta-katta temirchilik uskunalarida ishlashga to‘g‘ri keldi. Insonda tanlagan kasbiga qiziqish, mehr hissi bo‘lsa, hammasi o‘tib ketar ekan. Vaqt o‘tgan sari o‘z ishimni mukammal o‘rganib oldim. Hozir uchastkamizda mavjud uskunalarining barchasida ishlav olaman. Shu kunga qadar mingdan ortiq turdagi temirchilik jihozlarini yasadim, – deydi Anvar Mardonov.

Uchastkada Anvar Mardonov singari malakali mutaxassislar talaygina. Ular mahsulotlar turi, ayniqsa, import o‘rnini bosuvchi mahalliy lashtirilgan tovarlarni ko‘paytirish bo‘yicha tinimsiz izlanishlar olib borishmoqda. Yosh mutaxassis kadrlar o‘z bilim va ko‘nikmalarini shakllantirib borishlari uchun ularga kasb sirlarini mukammal o‘rgatishmoqda.

Zavod jamoasi ishlab chiqarishni mahalliy lashtirish borasida yutuqlarga erishmoqda. Ishlab chiqarishga raqamli dastur asosida ishlaydigan dastgohlar joriy etilayotganligi tufayli mahsulot sifati tobora yaxshilanmoqda. Korxonada nafaqat kon boshqarmasi, balki kombinat bo‘linmalari uchun ham zarur jihozlar va moslamalar o‘z vaqtida, sifatli ta’irlanib berilmoqda. Ahil jamoaning samarali mehnati natijasida korxonada o‘tgan yildan 9 ming turdagi mahalliy lashtirilgan, import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarila boshlandi.

Nafosat ZIYOYEVA.

■ Shu kunning mavzusi

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 28-fevraldagi farmoyishiga asosan mamlakatimizda 13-14-mart kunlari “Yurt obodligi, avvalo, mahalladan boshlanadi!” shiori ostida umumxalq xayriya hashari bo‘lib o‘tdi. Navoiy kon-metallurgiya kombinati barcha bo‘linmalarida hashar ishlari uyushqoqlik bilan tashkil etildi.

HASHAR – ELGA YARASHAR!



“NKMK” AJ Atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘limi boshlig‘i Xayrullo Baqoyev biz bilan suhbatda hashar va korxonada bu yo‘nalishda olib borilayotgan ishlar to‘g‘risida shunday dedi:

– Bahor fasli va uning falsafasi obodlik, yasharish tuyg‘ulariga hamohangdir. Bu davrda ko‘kalamzorlashtirish, manzarali va mevali daraxt ko‘chatlari, gul nihollarini ekish, dehqonchilik ishlari yanada qo‘r oladi. Yurtimizda har yili ezuq qadriyatlarni mujassam etgan hasharlar o‘tkazish an‘anaga aylangan.

Bu yilgi ikki kunlik hashar barcha bo‘linmalarida, ko‘pming kishilik jamoa, ishchi-xodimlar faoligidan bo‘lib o‘tdi. Hududlarni tozalash, obodonlashtirish, ko‘chatlar o‘tqazish, dov-daraxtlarga ishlav berish va oqlash ishlari tashkilotchilik asosida olib borildi.

Birgina, 1-gidrometallurgiya zavodi chiqindilarni saqlash ombori sanitar himoya zonasida tashkil etilgan xayriya hasharida 1000 nafardan

ziyod ishchi-xodimlar keng ko‘lamli obodonlashtirish ishlari amalga oshirildi. Jumladan, 10 ming tupdan ortiq ko‘chatlar ekildi. Oldingi yillarda ekilgan ko‘chatlarga ishlav berildi, oqlandi va sug‘orildi. Hududdan 30 tonnadan ortiq chiqindi chiqarildi. Hasharlar boshqa bo‘linmalarda ham uyushqoqlik bilan olib borildi.

Ma’lumot o‘rnida aytish joizki, joriy yilda ham kombinat bo‘yicha jami 500 ming tup manzarali va mevali daraxt hamda buta ko‘chatlarini ekish rejalashtirilgan. Bahor mavsumida hududlar iqlimi va cho‘l sharoitiga mos 202 ming tup ko‘chat turlari, jumladan, katalpa, shumtol, chinni gujum, pavloniya, akatsiya, tut, qayrag‘och, sharq tuyasi, tuya kompakt, aylant, chinor, saksovl, mevali daraxtlar, ligustrum, atirgul va boshqa ko‘chatlar ekiladi. Shuningdek, bu yil 35 gektar maydonda tomchilatib sug‘orish tizimi joriy etiladi.

Shohruh TURDIYEV.

8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni

Dil izhori

*Nafislik mujassam aytgan soʻzida,
Oʻzgacha mehr bor ohu koʻzida,
Muhabbat balqiydi gulgun yuzida,
Kasbining ustasi, mohir oʻzlari,
Kombinatning goʻzal qizlari!*

*Tolmasdan har ishini bajarar chaqqon,
Ilmli, mehnatkash, zukkodir har on,
Oilaga, doʻstlarga, juda mehribon,
Kasbining ustasi, mohir oʻzlari,
Kombinatning goʻzal qizlari!*

*Tabassum qilganda olam kuladi,
Qalb borki, quvonchga, nurga toʻladi,
Men uchun qadrdon hamkasb boʻladi,
Kasbining ustasi, mohir oʻzlari,
Kombinatning goʻzal qizlari!*

*Shaʼniga har qancha soʻzlar aytсам kam,
Ishida baraka, fayz mujassam,
Korxonada shunday fidoiylar jam,
Kasbining ustasi, mohir oʻzlari,
Kombinatning goʻzal qizlari!*

Nodira UMAROVA,
Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari
boshqarmasi muhandisi.

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tegishli majlis bayoniga muvofiq, 8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan joriy yil 15-fevraldan 15-martga qadar mamlakatimiz boʻylab “Ayl baxtli boʻlsa, jamiyat baxtlidir!” shiori ostida “Aylollarni eʼzozlash” oyligi oʻtkazilishi belgilangan. Mazkur oylik doirasida Navoiy kon-metallurgiya kombinatida ham turli maʼnaviy-maʼrifiy tadbirlar va koʻrik-tanlovlar tashkil etilmoqda.

ISTEʼDODLILARNI BIRLASHTIRGAN KOʻRIK-TANLOV



“Navoiy kon-metallurgiya kombina-ti” AJ, “Navoiyuran” davlat korxonasi, “NKMK jamgʻarmasi” davlat muassasa-si hamkorligida faol, isteʼdodli, tashab-buskor xotin-qizlarni ragʻbatlantirish maqsadida “Kombinatning Oltin ayo-li-2026” koʻrik-tanlovining final bosqichi oʻtkazildi. Tanlovning hududlarda oʻtgan saralash bosqichlarida gʻolib boʻlgan 14 nafar xotin-qiz final bosqichida ishtirok etish huquqini qoʻlga kiritdi. Navoiy shahridagi “Farhod” madani-

yat saroyida boʻlib oʻtgan tadbirda har bir ishtirokchining yorqin isteʼdodi va oʻziga xos ijro mahorati barchada kat-ta taassurot qoldirdi. Ishtirokchilar toʻrt shart asosida tanlov dasturiga mos ravishda oʻzlarining kasbiy salohiyati, zukkoligi va ijodkorligini ochib berishga harakat qilishdi. “Hayot tarozisida ayol” deb nom-

Dilobar Ergasheva, “Navoiyuran” dav-lat korxonasidan Uran ishlab chiqarish zavodi nazoratchisi Qunduz Kenjayeva, “NKMK jamgʻarmasi” davlat muassasa-sidan “Zarafshon” hududiy boshqarmasi Tibbiy-sanitariya qismi xodimi Dilbar Er-gasheva gʻoliblikni qoʻlga kiritib, “Kombi-natning Oltin ayoli” degan nomga sazo-vor boʻldilar. Gʻolib va sovrindorlar tan-

langan birinchi shartda ishtirokchilar jamoadoshlari bilan birgalikda uch da-qiqa davomida sahnaviy chiqish orqali oʻzlarini tanishtirishdi. Unda oila va ish faoliyati uygʻunligi, kundalik hayotdagi taʼsirli va ibratli lavhalar badiiy talqinda aks ettirildi. “Quvnoq shou startlar” shar-ti “Soʻgʻdiyona” jismoniy tarbiya va sport majmuasi arenasida tashkil etildi. Unda qatnashchilar oʻnta qiziqarli toʻsiqdan oʻtib, epchilligi, chaqqonligini namoyish etishdi. “Tezkor savol-javob” shartida esa ishtirokchilarning bilim doirasi va hozirjavoblgi baholandi. Ulardan har biri bir daqiqada oʻnta savolga javob berib, aqliy salohiyati va topqirligini koʻrsatish-di. “Anʼanaviy modalar namoyishi” sharti tanlovga alohida ruh olib kirdi. Ishtirok-chilar chiqindi materiallardan foydalanib, oʻzlari ixtiro qilgan rang-barang liboslar-ni sahnada namoyish etishdi. Barcha shartlar oʻzaro uygʻunlikda ishtirokchilar-ning koʻp qirrali iqtidorini ochib berdi. Yakuniy natijalarga koʻra, “Navoi-y kon-metallurgiya kombinati” AJdan Navoiy mashinasozlik zavodi operatori

lov tashkilotchilari tomonidan munosib taqdirlandi. – Oʻquvchilik davrlarimdan buyon oʻtkazilgan tadbirlarda koʻp qatnashgan-man, – deydi Dilobar Ergasheva. – Ora-dan shuncha vaqt oʻtib, bugun yuzlab tomoshabinlar oldida yana mahoratimni namoyish etish imkoniyatiga ega boʻl-dim. Sahna – bu kurash, mardlar may-doni. Unda faqat kuchlilar gʻolib boʻladi. Buni chuqur anglagan holda, oʻzimga boʻlgan ishonch, zavodimiz rahbariyati va hamkasblarim yordamida yana bir bor nufuzli tanlovda ishtirok etdim va yaxshi natijalarga erishdim. Bu tanlovda Navoiy, Uchquduq, Za-rafshon, Nurobod shaharlari hamda Za-farobod qoʻrgʻonidan tashrif buyurgan iqtisodchi va hisobchilar, laborantlar, dasturchilar, muhandis-texnologlar, ope-ratrlar, tibbiyot va ijtimoiy soha xodim-lari hamda boshqa koʻplab kasb egalari qatnashdilar. Bunday anʼanaviy tanlov-lar isteʼdodli xotin-qizlarni aniqlash va ularni taqdirlashga xizmat qilmoqda. Zafarjon OLIMOV.

KOʻNGLIM TOGʻDEK KOʻTARILDI...

❑ Oxiri. Boshlanishi 1-betda

Turmush oʻrtogʻi Xolboy aka bilan birgalikda farzandlari Sherali, Nurali va Mahfuzalarni munosib tarbiyalab voyaga yetkazdi, elga qoʻshdi. Yetti nafar shirin-dan-shakar nabiralari bugun ularning hayotdan topgan bebaho neʼmatlaridir. Bugun u oʻzining fidokorona mehnati, kamtarligi va ishga sadoqati bilan jamoa-da hurmat qozonib kelmoqda. Navoiy kon-metallurgiya kombinatining “Qora-qoʻton” konida ish boshlab, dastlab ish-lab chiqarish xonalari farroshi vazifasida mehnat qildi. Mehnatga boʻlgan sado-qati, ishga masʼuliyat bilan yondashuvi uning jamoada obroʻ-eʼtibor qozonishiga zamin yaratdi. Keyinchalik u shu konda yer osti usulida qazib olish uchastkasi-da lampachi vazifasida faoliyat yuritish-ni boshladi. Bu vazifa shaxta sharoitida ishlaydigan konchilar xavfsizligi bilan bevosita bogʻliq boʻlgan masʼuliyatli ish hisoblanadi. U oʻz vazifasini sidiqildan bajarib, ishchilarga taqdim etiladigan shaxta lampalarining sozligi, ularning oʻz vaqtida zaryadlanishi va tayyor holda boʻlishini taʼminlab kelyapti. U jamoada halolligi, masʼuliyatligi va mehnatsevar-ligi bilan hurmat qozondi.

Hafiza Boymurodova, “Moʻtabar ayol” koʻkrak nishoni sohibi: – Bu yangilik men uchun bayramga kutilmagan sovgʻa boʻldi. Intilgan, ezigu ishlarga salohiyatini sarf qilgan kishining mehnati besamar ketmas ekan. Kamta-rona xizmatlarim respublika darajasida eʼtirof etilishidan davlatimiz, kombinat rahbariyatidan minnatdorman. Albatta, bu ragʻbat men uchun ulkan masʼuliyat, ishonchni oqlash va fidoyilik koʻrsatib ishlash demakdir. Mehnatning qadrini, har bir neʼmatning ortida qancha zahmat borligini yanada teranroq his qilib bora-verar ekansiz. Shuning uchun ham bizga berilgan har bir imkoniyat va neʼmat-ga shukr qilib, halol mehnat qilish kerak-ligini hayotning oʻzi koʻrsatmoqda. Soʻnggi yillarda kombinatda mehnat qilayotgan xotin-qizlarning faoliyati mu-nosib ragʻbatlantirilmogda. Bunday eʼti-roflar nafaqat mukofot sohiblarini, balki butun jamoani yanada katta marralar sari ruhlantirishi tabiiy. Zero, mehnat-sevar, fidoyi va tashabbuskor ayollar jamiyat taraqqiyotining muhim tayanchi hisoblanadi.

Dildora TOʻLQINOVA.

– Har bir inson hayotda orzusi tomon intilib yashaydi. Ertalab ishxonamga qadam qoʻyarkanman, jamoamdagi insonlar bilan suhbatlashib, muammolarining yechimini topishga harakat qilaman, – deydi Tashqi suv taʼminoti birlashgan energoxizmati kasaba uyushmasi qoʻmitasi raisi Dilrabo Egamberdiyeva.

Bolaligimizdan har birimiz kimgadir yoki qaysidir kasbga havas qilib, shu sohaning yetuk mutaxassisi boʻlishga intilamiz. Dilrabo opa butun hayotini inson-larga koʻmak berishga bagʻishlagan. Bolaligi Xatirchi tumanida oʻtgan qahramonimizning otasi Eshmamat bobo va onasi Norgul opa toʻqqiz nafar farzandni halol mehnati bilan tarbiyalab voyaga yetkazishgan. Oilada sakkizinchi farzand boʻlgan Dilrabo opa bolaligidanoq mehnatkash va bilimga chanqoq qiz boʻlgan. Dilrabo opaning turmush oʻrtogʻi Xayrullo aka Za-rafshon qurilish boshqarmasining 4-avtokoronasiga haydovchi boʻlib ishga kirgach, oila taqdiri shu shahar bilan bogʻlandi. D.Egamberdiyeva esa Markaziy kon boshqarmasining Sanoat issiq suv taʼminoti va oqava suvlarni tozalash sexi tozalash inshootlari operatori, oradan oʻn yil oʻtib, korxona kasaba uyushmasi qoʻ-mitasi raisi, 2020-yildan eʼtiboran Tashqi suv taʼminoti birlashgan energoxizmati kasaba uyushmasi qoʻmitasi raisi vazifasida ishlab kelmoqda. Kasaba uyushmasi qoʻmitasi bu, odamlar bilan be-vosita muloqotda boʻladigan, ularning haq-huquqini himoya qiladigan tashkilot, uning rahbari zimmasida yuksak masʼuliyat boʻladi. Soʻnggi yillarda korxona ish-chi-xodimlarining takliflarini oʻrganish natijasida, barcha boʻlim va stansiyalarida dam olish, ovqatlanish hamda yuvinish xonalari qayta taʼmirlanib, maishiy texnikalar bilan jihozlandi. Nasos stansiyalari va “Sazakino” may-

donida mehnat qilayotgan ishchi-xodimlarning ishdan boʻsh vaqtlarini maroqli oʻtkazishlari uchun 3-Birlash-gan kasaba uyushma qoʻmitasi tomonidan badiiy ki-toblar, trenajerlar, yugurish yoʻlakchasi va boshqa sport anjomlari ajratildi. “Sazakino” maydoni ishchi-xodimlari uchun sunʼiy qoplamali futbol oʻyingohi qurib berildi. Dilrabo Eshmamatovna yuksak insoniy fazilatlarga ega mehnatkash ayol. U hamkasblari bilan hamisha samimiy munosabatda boʻlib, ularning dardu tashvish-lariga befarq qaramaydi. Faoliyati davomida jamoa aʼzolari uchun yaratilgan sharoitlar, tashkil etiladigan madaniy-maʼrifiy tadbirlar, sport musobaqalari korxo-nada ishchanlik muhitini yanada yaxshilab, jamoaviy ruhni mustahkamlab kelmoqda. Dilrabo opa turmush oʻrtogʻi Xayrulla aka bilan ikki nafar farzandni tarbi-yalab, oliy maʼlumotli qilishdi. Oʻgʻli Zafar Tashqi suv taʼminoti birlashgan energoxizmatida usta vazifasida ishlab kelayotgan boʻlsa, qizi Maxliyo Toshkent tibbiyot akademiyasini tugatib, ayni vaqtda Respublika sud tib-biy ekspertiza amaliy markazida shifokor boʻlib faoliyat olib bormoqda. Dilrabo opa shirindan-shakar nabiralar-ning buvjonisi hamdir. – Oʻtgan hayotimni sarhisob qilarkanman, shuhrat-li kombinat tizimida ishlab, hayotda oʻz oʻrnimni top-ganimdan faxrlanaman, – deydi kamtarlik bilan opa. – Kimgadir ish joyida, boshqasiga oilaviy hayotida yordam kerak boʻladi. Shunday insonlarning koriga



yarash, madad boʻlish ham burch, ham baxt. Inson ol-diga qoʻygan maqsadlari sari intilsa, eng muhimi, at-rofidagilarga nafi tegsa, mehnatlari eʼtibordan chetda qolmas ekan. Mening kamtarona mehnatim eʼtirof eti-lib, “NKMK faxriysi” va III darajali “Konchilik shuhrati” koʻkrak nishonlari bilan taqdirlandim. Dilrabo Egamberdiyeva kabi kasaba uyushmasi qoʻmitalari tizimida faol xodimlar kon boshqarmasida hurmat va eʼtirofga sazovor boʻlmoqdalar. Ularning mehnati, jonkuyarligi va kasbiga sadoqati kombinatimiz taraqqiyotiga munosib hissa boʻlib qoʻshilmoqda. Aziza IRISOVA.

ЕЁ ПРИЗВАНИЕ – ЗАБОТИТЬСЯ И БЕРЕЧЬ

Международный женский день — это праздник не только цветов и поздравлений. Это также особый повод оглянуться вокруг и увидеть тех женщин, чья жизнь не связана с громкими должностями и большими городами, но чей ежедневный труд держит на себе целые семьи и небольшие населённые пункты, это дань уважения их стойкости, терпению и внутренней силе. Именно о такой женщине — Ларисе Ризаевне Бабаджановой — хочется рассказать в этот день. Её судьба — пример того, как в условиях маленького пустынного посёлка можно сохранить достоинство, трудолюбие и верность своему делу.



лы в 1989 году поступила в педагогическое учили-ще на вечернее отделение, совмещая учёбу с ра-ботой воспитателем в детском саду, что позволило ей сразу применить полученные знания на практи-ке. Лариса Ризаевна вкладывала в детей душу, ор-ганизовывала утренники, занималась развитием

малышей, старалась создать атмосферу тепла и уюта. Для неё эта работа была призванием. Однако экономические трудности 90-х годов коснулись и Учкудука. Детский сад закрылся, и Ла-рисе Ризаевне пришлось искать новую работу. В 2009 году она устроилась кладовщиком на водо-вод “Амударья-Зарафшан” в структуре Объеди-нённой энергослужбы внешнего водоснабжения (ОЭС ВВС) Центрального рудоуправления Наво-йского горно-металлургического комбината в го-роде Зарафшан. Для женщины, привыкшей рабо-тать с детьми, это стало серьёзным испытанием. Но в маленьком городе выбор профессий ограни-чен, и нередко приходится осваивать совершенно новые сферы. Лариса Ризаевна приняла этот вызов. И уже 16 лет трудится в Цехе головных водозаборных сооружений в маленьком посёлке Саримай, ко-торый расположен на берегу реки Амударья в Хорезмской области. Именно здесь берёт начало многокилометровый водовод, несущий воду через Кызылкумские пески в дома жителей городов За-рафшан и Учкудук, снабжает технической водой золотодобывающие и перерабатывающие мощ-ности ГМК.

Работа в таком месте имеет особое значение. Вода в пустынном регионе — это не просто комму-нальная услуга, а основа жизни. От бесперебой-ной работы предприятия зависит благополучие всех городов и предприятий комбината, а также жителей посёлка Саримай. Лариса Ризаевна отве-

чает за склад: спецдежду, запчасти, технические материалы, горяче-смазочные средства, ведёт строгий учёт, следит за сохранностью имущества, оформляет отчётность. Любая ошибка может обернуться серьёзными последствиями, поэтому её внимательность и ответственность особенно ценны. Физическая нагрузка, работа с техническими материалами, строгая дисциплина — всё это ста-ло частью её повседневности. Кроме того, Ларисе приходится взаимодействовать с главным офисом ОЭС ВВС в Зарафшане, периодически ездить для сдачи отчётов. Долгая дорога по пустынной мес-тности требует выносливости, но она не жалуется. В маленьком посёлке каждый знает: если не ты, то кто? За годы работы Лариса Ризаевна заслужила уважение коллег. В небольшом коллективе все на виду, и добросовестность невозможно скрыть или подменить формальностями. Её ценят за надёж-ность и спокойный характер. Праздничные грамо-ты и слова благодарности — это знак признания её труда. Семья для Ларисы Ризаевны — главный ис-точник поддержки. Вместе с мужем — Дульшатом Курбановичем - они вырастили двоих детей, по-мogli им получить образование. Жизнь в пустын-ном посёлке требует постоянного труда не только на работе, но и дома. Семья Бабаджановых живёт в частном доме, поэтому приходится вести хозяй-ство, ухаживать за огородом и животными. В за-

сушливом климате даже небольшой участок земли требует усилий и заботы. Но для них это не только необходимость, а часть привычной жизни, способ сохранить самостоятельность и устойчивость. Отпуск чаще всего проходит дома. Далёкие путешествия редки — хозяйство не оставишь без присмотра, да и возможности ограничены. Одна-ко даже короткий отдых в кругу семьи приносит радость. В маленьком посёлке ценятся простые вещи: тёплый вечер во дворе, разговоры с близки-ми, чувство спокойствия. В честь Международного женского дня история Ларисы Бабаджановой звучит особенно значимо. Она не занимает высоких должностей и не высту-пает на больших сценах, но её ежедневный труд поддерживает жизнь маленького пустынного по-сёлка. Она воспитывала детей, а теперь заботится о том, чтобы в дома поступала вода. В её судьбе отражается сила женщин, которые, несмотря на суровые условия, продолжают работать, растить детей и сохранять тепло в семье. 8 марта — это повод сказать спасибо таким женщинам. Тем, кто живёт вдали от мегаполисов, кто трудится в непростых климатических условиях, кто не ждёт громких наград, но честно выполняет свою работу. Лариса Бабаджанова — одна из тех, кто своим примером доказывает: настоящая сила заключается в ежедневной ответственности, вер-ности семье и уменью не сдаваться.

Насиба ШАМУРАТОВА.

■ Xabarlar, yangiliklar

O'TGAN YILGI ISHLAR
YUZASIDAN MA'LUMOT
BERILDI

Navoiy shahridagi "Farhod" madaniyat saroyi matbuot anjumanlarini o'tkazish zalida ommaviy axborot vositalari vakillari va jurnalistlar uchun matbuot anjumani tashkil etildi. Unda respublika va viloyat OAV vakillariga "NKMK" AJda 2025-yilda amalga oshirilgan ishlar yuzasidan batafsil ma'lumot berildi.



Tadbirida "NKMK" AJ bosh direktorining birinchi o'rinbosari J.Hasanov, NKMK xodimlari kasaba uyushmasi Kengashi raisi I.Rahmatov, Komplayens xizmati boshlig'i R.Avezov, Atrof-muhitni muhofaza qilish bo'limi boshlig'i X.Baqoyevlar ma'ruzalari va fikr-mulohazalari bilan ishtirok etdilar.


Kun tartibida kombinat tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, yuqori turuvchi organlar topshiriqlari ijrosi, ishlab chiqarish va iqtisodiy natijalar, kadrlar tayyorlash, ijtimoiy va yuridik shaxslar murojaatlari bilan ishlash, korruptsiyaga qarshi kurashish, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash va boshqa muhim yo'nalishlar bo'yicha 2025-yilda amalga oshirilgan ishlar hamda erishilgan natijalar haqida OAV vakillariga axborot berildi.

Ma'ruzalarda ta'kidlandiki, 2025-yil "NKMK" AJ jamoasi uchun sinovli va muvaffaqiyatli keldi. Jumladan, hisobot yilida 135,6 trillion so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi. Mahalliyalashtirish dasturi doirasida 1,4 trillion so'mlik mahalliyalashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqarishga, tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasi doirasida 7,3 trillion so'mlik mahsulotlar xarid qilishga erishildi. Investitsiya dasturi doirasida 561 million AQSh dollarlik mablag' o'zlashtirilib, ko'plab loyihalar amalga oshirildi va buning hisobiga 2,6 mingdan ortiq yangi ish o'rni yaratildi.

"Sustainable Fitch" xalqaro reyting agentligi tomonidan "NKMK" AJga '3' darajasida va umumiy 51 ball bilan ilk bor korporativ ESG-reytingi berildi. London fond birjasida umumiy qiymati 500 mln. AQSh dollariga teng korporativ obligatsiyalar muomalaga chiqarildi va joylashtirildi. Raqamli rivojlanish darajasi bo'yicha reyting baholash natijalariga ko'ra, "NKMK" AJ 98,7 ball ko'rsatkich bilan 33 ta xo'jalik boshqaruvi organi o'rtasida 1-o'rinni egalladi.

Abdumajid JO'RAYEV.

■ Safarnoma



Insonga yuksak, oliy va qimmatli unsur– aql va salohiyat in'om etilgan. Bular orqali u hammasiga erishishi mumkin. Yangilanayotgan Mo'ynoq inson salohiyati, sabri va matonati har nedar ustun turishi, u har qanday sharoitda ham o'ziga yo'li topib ketishini isbotlayapti.

Qoraqalpog'istonda inson qo'li bilan keng qamrovli bunyodkorlik ishlari, ulkan o'zgarishlar amalga oshirilayapti. Mo'ynoq tumanida aholi turmush sharoiti yaxshilanib, ekologik muhit barqarorlashtirilyapti. Hudud zamonaviy shaharsozlik qiyofasiga kirib borayapti. Tuman markazida qad rostlagan ko'rkam bino va inshootlar har qanday insonni o'ziga rom etadi. Tuman madaniyat saroyi, Yoshlar markazi, zamonaviy aeroport hamda shunga o'xshash davlat va jamoat tashkilotlari binolari qariyb besh kilometrlik markaziy yo'l bo'yida marvariddek tizilgan. Kech tushishi bilan keng va ravon yo'l atrofidagi rang-barang chiroqlar yirik megapolisni yodga soladi.

va urug'ini qadash ishlari amalga oshirilgan ekan. Bu ishlarga yuzlab maxsus texnika va ikkita samolyot jalb qilingan. Qoraqalpog'iston Respublikasi O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi taqdim etgan ma'lumotlarga ko'ra, saksovlur urug'ini qor, yomg'ir suvi ostida sepih yoki ko'chat o'tqazish yaxshi samara berarkan. Taqdirning tuhfasi qarang-ki, kombinat yoshlari borgan kunlarda Orolga bir qarich qor yoqqan edi. E'tiborli jihati, Orolning qurigan maydonidagi saksovlur orasiga yovvoyi hayvonlar va chorva uchun ozuqabop ekinlar ham ekilmoqda. Dengizning qurigan maydonlarida qazilgan arteziyan quduqlardan chuchuk suv chiqyapti. Bu, kelajakda chorvachilikni

OROLGA HAYOT
QAYTMOQDA

O'tgan yillar mobaynida Orol dengizining qurigan qismida yashil hudud yaratish, ikki million gektar maydonda saksovlur va boshqa cho'l o'simliklaridan "yashil qoplama" barpo etish o'zining samarasini berdi. Sakkiz yil oldin boshlangan ishlardan odamlar xursand bo'lganligini yaxshi bilamiz. Dengiz qirg'oqlari uzoqlashgan bo'lsa-da, bu yerlarga kelgan inson o'tgan davrda tabiatdagi ijobiy o'zgarishlarning guvohi bo'ldi.

Kishini o'ziga maftun etgan, aholi unda bahra olgan Orol dengizi endilikda tarixga aylandi. Orol doimo butun mintaqaga uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Dengiz o'z qirg'oqlaridan ortga chekingan bo'lsada, odamlar unga qarab bormoqda.

Bundan ikki yil avval Navoiy kon-metallurgiya kombinatining yoshlari bilan Orol dengizining qurib, cho'lga aylangan qismida saksovlur ko'chatlarini o'tqazish ishlari amalga oshirgan edik. Bu yilgi safar ham mart oyiga to'g'ri keldi. Yoshlarimiz tomonidan o'tqazilgan cho'l ko'chatlari tomir yoyib, anchagina bo'y ko'rsatib qolganidan barcha behad xursand bo'ldi.

Kombinatning 100 nafar yoshlari 4-8-mart kunlari Orol dengizining qurigan qismidagi maydonda 50 ming tup saksovlur ko'chatlari o'tqazishdi. Kombinatt yirik sanoat ishlab chiqarish korxonasi emasmii, Navoiy, Zarafshon, Uchquduq, Nurobod, Zarmitan, Marjonbuloq kabi shahar va qo'rg'onlaridan kelgan yigitlarning ezgu maqsadlari ularni bir joyda jamladi. Bu safar yosh konchiyu metallurglar, muhandis-energetiklar, sohaning yosh olimlari bilan birga Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetining talabalari ham shunday xayrli ishda faol ishtirok etdilar.

Men bu ekologik aksiyada to'rtinchi bor qatnashishim. Har gal kelganda, safdoshlarim bilan birga yangi taassurotlarga ega bo'lamiz. Bu galgi safarimiz quvonch bilan boshlandi. Bugun Orol mintaqasida ko'chat ekish ishlarida ishtirok etidik. Xayrli ishga hissassi qo'shayotganidan yoshlarimiz xursand, deydi 1-gidrometallurgiya zavodi chilangar-tamirllovchisi Shahboz Inoyatov.

Joriy yilda 250 ming gektardan ortiq maydonda saksovlur ko'chatlarini ekish



rivojlanish imkonini beradi, shubhasiz. Shuningdek, saksovlur orasiga dorivor g'iyohlar ekish ishlari ham boshlangani quvonarli holdir. Ayni paytda Orolga olib borilayotgan keng ko'lamli ishlarda viloyatlardan kelgan hasharchilar faol ishtirok etmoqdalar.

MA'NAVIYAT VA MADANIY
MEROSGA YUKSAK
EHTIROM IFODASI

"Orol taqdiri – kelajak avlod taqdiri" shiori ostida o'tkazilayotgan ekologik aksiya ishtirokchilarining bu yilgi taassurotlari boshqacha. Qariyb bir haftalik safarimiz Nukus va Mo'ynoq shaharlaridagi muzeylar, teatr va madaniyat saroylarida yanada fayzli o'tdi. Kombinatt yoshlari mo'ynoqlik yoshlari bilan birgalikda uyushtirgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarida og'a-inidek bo'lib ketishdi. Chunki ular birinchi bor kelayotgani yo'q, go'yo shu yerda ular bilan birga istiqomat qilayotgan yaqinlardek bo'lib ketishgan. Kitob – bu ma'rifat, ma'naviyat bulog'i. Kombinatt yoshlari umumta'lim muassasalarida bo'lib, kitob jamlanmalarini sovg'a qildilar.

Qoraqalpog' elida adabiyotga bo'lgan muhabbat, ijodkorlar asarlaridagi samimiy tuyg'ular go'yo Orol dengizining katta to'liqlarini eslatadi. O'zbekiston va Qoraqalpog'iston Yozuvchilar uyushmalarining Navoiy kon-metallurgiya kombinati bilan hamkorligida yozuvchi-shoiralar, mo'ynoqlik yoshlarning ijod namunalari bilan iborat "Orolning asov to'liqlari" to'plami chop etildi. To'planning Mo'ynoq shahridagi madaniyat saroyida bo'lib o'tgan taqdimot marosimida ta'lim sohasi murabbiylari, ustoz ijodkorlar, nuroniylar, o'quvchilar, kombinatt yoshlari va konchilik universiteti talabalari ishtirok etishdi. Tadbirida Mo'ynoq tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlanish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar

bo'yicha o'rinbosari Murod Jumaboyev, Qoraqalpog'iston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi Kunsuluv Nosirova, kombinatt Jamoatchilik bilan aloqalar bo'yicha direktor Xolmamat Raupov va boshqalar so'zga chiqishdi.

Men adabiyotga qiziqqanligim bois she'r yozib turaman. Ilk she'rilarim mazkur to'plamga kirganidan behad baxtiyorman. Men kabi maktab o'quvchilarining ijodi ushbu kitobdan joy olgani kelgusida ko'proq o'qishga, eng muhimi ijod qilishga rag'bat uyg'otadi, deydi 11-umumta'lim maktabi o'quvchisi Biybaris Amanbayev.

Tadbirida ushbu kitob asrlar davomida shakllangan o'zbek va qoraqalpog' xalqlari orasidagi mustahkam do'stlik aloqalari, qardoshlik rishtalari, o'zaro mehr-oqibat davom etishida muhim o'rin egallashi alohida ta'kidlandi. Ushbu to'plam Qoraqalpog'iston Respublikasi, shu jumladan, Mo'ynoq tumani umumta'lim maktablariga tarqatildi.

Shuningdek, kombinatt yoshlari "Ochiq osmon ostidagi kemalar muzeyi" majmuasi hamda Mo'ynoq ekologiya muzeyida bo'lib, Orol dengizining o'tmishi va bugungi kundagi ko'rinishi, mintaq flora va faunasi haqida batafsil

yohatlar yoshlarimiz qalbidagi ajdodlarga, tariximizga bo'lgan hurmat his-tuyg'ularini uyg'otishi tabiiy, deydi Navoiy mashinasozlik zavodi quymachilik sexi elektromontyor Shahzod Norboyev. Kombinattimiz yoshlari hamda Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti talabalari Nukus shahridagi Berdaq nomidagi Qoraqalpog' davlat musiqali teatriga tashrif buyurishdi. Navoiylik yoshlar mazkur teatrdagi Ajiniyoz Ismoilovning "Tebranmas yuraklar" spektaklini tomosha qilib, inson tarbiyasida teatrnning muhim ahamiyat kasb etishini yana bir bor angladilar.

Teatrga birinchi marta tushishim. Ilk tomosha zavqi, taassurotlar, mahoratli aktyorlar bilan yuzma-yuz uchrashishdan barcham behad xursandim. Spektakldan madaniy hordiq va juda katta ma'naviy ozuqa oldik. Bunday sahna asarlari har qanday insonni yaxshilikka yetaklashi, ongu tafakkuriga kuchli ta'sir etishini oddiy tomoshabin sifatida chuqur his qildim. Teatrn ibratxona, darsxona deganlari rost ekan, deydi Shimoliy kon boshqarmasi Markaziy fizika-kimyoviy laboratoriyasi muhandisi Farid Nazarov.

Bir so'z bilan aytganda, tabiatdagi uyg'onish jarayoni butun borliqning jonlanishiga monand. Bahor nafasi yer yuziga taralishi bilan insonlar ham faol harakatga keladi, atrof-muhitga bo'lgan e'tibor yanada ortadi, hayot "qozoni" go'yo yanada jo'shqin qaynay boshlaydi.

Bugungi kunda ekotizimni muhofaza qilish, atrof-muhit barqarorligini ta'minlash va tabiiy muvozanatni saqlash masalasi jahon miqyosidagi dolzarb vazifalardan biriga aylangan. Bu yo'lda ilmiy

MUHIM MASALALAR
MUHOKAMA ETILDI

"Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ tashabbusi bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi "Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi boshqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-21-sonli hamda "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili"da ustuvor yo'nalishlar bo'yicha islohotlar dasturlari va "O'zbekiston-2030" strategiyasini amalga oshirish bo'yicha davlat dasturi to'g'risida"gi PF-22-sonli Farmonlari mazmun-mohiyatini keng targ'ib etishga bag'ishlangan seminar bo'lib o'tdi.

Videoselektor ko'rinishda bo'lib o'tgan seminar "NKMK" AJ bosh direktorining birinchi o'rinbosari J.Xasanov, bosh direktorning o'rinbosari M.Alqarov, Xodimlarni o'qitish va rivojlantirish bo'limi boshlig'i A.Rizayev va Atrof-muhitni muhofaza qilish bo'limi boshlig'i X.Baqoyevlarning ma'ruzalari tinglandi. Shuningdek, seminar "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish

yili" davlat dasturi hamda "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ chora-tadbirlari dasturi ijrosini tashkil etish masalalari ham muhokama etildi. Kun tartibiga doir vazifalar belgilab olindi.

Asliddin RO'ZIYEV,
Ma'naviyat va ma'rifat markazi
mutaxassisi.

Roʻza haqida oʻn hadis

1. Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilindi, Rasululloh sollallohu alayhi va sallam aytdilar: “Ramazon oyi kirganda jannat eshiklari ochiladi, jahannamga qulf solinadi va shaytonlar kishanlanadi”. (Buxoriy va Muslim).

2. Sahl ibn Sa’d roziyallohu anhudan rivoyat qilindi, Rasululloh sollallohu alayhi va sallam aytdilar: “Jannatda sakkizta eshik bor. Ulardan biri “Rayyon” deb nomlangan. Undan faqatgina roʻzadorlar kiradi”. (Buxoriy va Muslim).

3. Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilindi, Rasululloh sollallohu alayhi va sallam aytdilar: “Kimki Ramazonda imyon va ixlos ila, savob umidida roʻza tutsa, uning oldingi gunohlari kechiladi. Kimki Ramazonda imyon va ixlos ila, savob umidida kechalari (namozda) qoim boʻlsa, uning oldingi gunohlari kechiladi. Kimki qadr kechasida imyon va ixlos ila, savob umidida qoim tursa, uning oldingi gunohlari kechiladi”. (Buxoriy va Muslim).

4. Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilindi, Rasululloh sollallohu alayhi va sallam aytdilar: “Odam bolasining har bir yaxshi amali-ga ortigʻi bilan mukofot beriladi. Bir yaxshilikka oʻn barobardan to yetti yuz barobargacha savob berilishi mumkin. Alloh aytdiki: illo, roʻza bundan mustas-nodir. Chunki roʻza Men uchun va unga Oʻzim ajr beraman. Roʻzador Meni deb shahvati va taomidan voz kechadi. Roʻzadorga ikki marta shodlik bor. Biri iftor-lik chogʻida, ikkinchisi Robbisiga yoʻliq-qan chogʻda. Shubhasizki, roʻzadorning ogʻzidan chiqqan hid Allohning nazdida

mushki anbarning xushboʻyidan ham yaxshiroqdir. Roʻza qoʻrgʻondir. Qaysi biringiz roʻza tutgan boʻlsa, birovni haqo-ratlamasin va ovozin koʻtarib baqirma-sin. Uni birov soʻksa yo urushsa, unga: “men roʻzdorman”, desin”. (Buxoriy va Muslim).

5. Salmon Forsiy roziyallohu anhu-dan rivoyat qilindi, u kishi aytdilar: Ra-sululloh sollallohu alayhi va sallam bizga shaʼbon oyining oxirgi kuni mavʼiza qilib: “Hoy odamlar! Sizlarga ulugʻ, bara-kali oy soya solib turibdi. U shunday oyki, unda ming oydan koʻra samara-liroq bir kecha bor. Alloh u oyda kun-duzi roʻza tutishni farz, kechalari qoim turishni nafl qildi. Kim bu oyda bir yax-shi xislat bilan Xudoga yaqinlashsa boshqa oylarda bir farzni ado etgandek boʻladi, kimki bu oyda bir farzni ado etsa, boshqa oylarda yetmishta farz-ni ado etgan darajada koʻp savobga ega boʻladi. Bu sabr oyidir, sabrning ajri esa jannatdir. Bu oʻzaro hissador-lik, sherikchilik qilinadigan oydir. Unda moʻminning rizqi ziyoda boʻladi. Kim bu oyda bir roʻzadorga iftor qilib bersa, gu-nohlari kechiriladi, jahannamdan ozod boʻladi va oʻsha roʻzadorga berilgan ajr mislicha ajrga ega ham boʻladi”,..– de-dilar.

Biz: “Ey Rasululloh, hammamiz ham iftor qilib berishga qodir emasmizku?!” – dedik .

Rasululloh sollallohu alayhi va sal-lam: “Alloh taolo roʻzadorga bir yutum sut yo bir dona xurmo va yoki bir qul-tum suv berib, iftor qildirganga ham oʻsha savobni beraveradi. Agar kimki bir roʻzadorning qornini toʻydirsas, Alloh uni mening hovuzimdan suv ichiradi

va u to jannatga kirguncha qayta tash-na boʻlmaydi. Bu shunday oyki, uning avvali rahmat, oʻrtasi magʻfirat va oxiri jahannamda ozodlikdir. Kimki bu oyda qoʻl ostidagi quliga yengillik qilsa, Alloh uni kechiradi va doʻzaxdan xalos qiladi”, – deb javob berdilar. (Bayhaqiy, Ibn Xu-zayma).

6. Abdulloh ibn Abbos roziyallohu an-hudan rivoyat qilindi, u kishi aytdilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam Ramazon oyi kirganda barcha asirlarni ozod qilar va har bir solga soʻrganini berardi. (Bayhaqiy, Shuab ul-iymon).

7. Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilindi, Rasululloh sollallohu alayhi va sallam: “Ramazonning oxirgi kechasida um-matlari kechirilishini” aytdilar. Shunda Ul zotga kimdir: Ey Rasululloh, oʻsha qadr kechasimi?” – deb savol qildi. Ul zot: “Yoʻq, lekin har bir amal egasi oʻz ishini tugatsa toʻliq ajrini oladi”, – dedilar. (Imom Ahmad).

8. Anas ibn Molik roziyallohu anhu-dan rivoyat qilindi, Rasululloh sollallohu alayhi va sallam aytdilar: “Saharlik qilinglar, chunki saharlikda baraka bordir”. (Buxoriy, Muslim).

9. Amr ibn al-Os roziyallohu anhu-dan rivoyat qilindi, Rasululloh sollallohu alayhi va sallam aytdilar: “Bizning roʻzamiz bilan ahli kitoblar-ning roʻzasini saharlik ajratib turadi”. (Muslim).

10. Sahl roziyallohu anhudan rivoyat qilindi, Rasululloh sollallohu alayhi va sallam aytdilar: “Odamlar modomiki iftorga shoshilar ekan, yaxshilikda davomiy boʻlaverisha-di”. (Buxoriy va Muslim).

Navoiy shahridagi “Farhod” madaniyat saroyida Gruziyaning mashhur “Erisioni” ansambli tomonidan “Oʻzbekistonda – Gruziya madaniyat kunlari” doirasida kombinat ishchi-xodimlari uchun konsert dasturi namoyish etildi.

uchun unga xalq ashula va raqs davlat akademik ansambli maqomi berilgan. – Konsert dasturi xalqlar oʻrtasida doʻstona munosabatlarni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega, – deydi ansambl-

GRUZIYANING MASHHUR “ERISIONI” ANSAMBLI NAVOIYDA



Navoiy kon-metallurgiya kombinati ma'muriyati, kasaba uyushmasi Ke-ngashi va “Farhod” madaniyat saroyi rahbariyati hamkorligida tashkil etilgan ushbu madaniy tadbir kombinat ishchi-xodimlari va ularning oila aʼzolari uchun haqiqiy bayram tuhfası boʻldi.

Xalq artistlari, davlat mukofotlari so-hiblari hamda taniqli va yosh ijrochi-lardan tarkib topgan jamoa tomonidan mahorat bilan ijro etilgan kuy-qoʻshiqlar, rang-barang raqslar sanʼatsevar muxlis-lar olqishlariga sazovor boʻldi.

Ansambl raqqoslari oyoq uchida raqsga tushish sanʼatini mukammal egallagan. Ular murakkab akrobatik ele-

mentlar, baland sakrashlar, xilma-xil ha-rakatlar bilan tomoshabinlarni hayratga solishdi. Har bir musiqiy chiqishni tomo-shabinlar olqish va qarsaklar bilan kutib oldilar.

“Erisioni” ansambli 1855-yilda tashkil etilgan. Ansambl oʻtgan davrda boy re-perduari bilan chet davlatlarda shuhrat qozonib, muxlislar qalbini zabt etib kel-moqda. Dastlab u xalq qoʻshiqlarini ijro etuvchi havaskorlar xori sifatida faoliyat boshlagan. Vaqt oʻtishi bilan jamoa ke-ngayib, xalq raqsini ijro etuvchi sanʼat-korlarni ham oʻz safiga qoʻshdi. Betakror xalq qoʻshiqlarini toʻplash, tiklash va om-malashtirish yoʻlida erishgan yutuqlari

ning badiiy rahbari Shermandi Chkua-se-li. – Biz kombinatga oldin ham kelib kon-sert berganmiz. Muxlislarimiz koʻp. Buni muhtasham konsert zaliga ixlosmand-larning tashrifi, olqishlari, minnatdorchil-igidan ham bilsa boʻladi. Bu galgi tash-ri-fimiz esa biz kutganimizdan ham ziyoda, taassurotlar va hayajonli lahzalarga boy boʻldi. Buning uchun tashkilotchilarga katta rahmat. Ular ansamblimizni yaxshi kutib olib, “Farhod” madaniyat saroyida barcha sharoitlarni yaratib berdi.

Tomoshabinlarni hayratga solgan ushbu konsert dasturi davomli olqishlar bilan yakunlandi.

D.KARIMOVA.

NAQLIYOT (TRANSPORT) VOSITALARI ODOBLARI

Naqliyot (transport) vositalari Alloh taoloning bandalari-ga bergan neʼmatlaridan hisoblanadi. Alloh taoloning kalomi Qurʼoni karimda, Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning sunnatlarida va shariatimiz taʼlimotlarida bu mavzuga oid bir qancha maʼlumotlar kelgani zimimizda bu vositalarga qancha-lar eʼtibor berilganining dalilidir.

Shuningdek, Alloh taolo inson uchun suvda choʻkmaydi-gan turli vositalarni yaratib, ularga maʼlum shakllarni berishni odamlarga ilhom etib, dengizlarda suzib yuradigan kemalarni Oʻzi joriy qilgan qonun-qoidalar asosida harakatlanadigan etib qoʻydi. Bu ham Allohning Odam bolasini azizu mukarram qil-ganidandir.

Alloh taolo Isro surasida marhamat qiladi: **“Robbingiz Uning fazilidan talab qilishingiz uchun de-ngizda kemani yurgizib qoʻygan Zotdir. Albatta, U sizga oʻta rahmildir”** (66-oyat).

Naqliyot vositalaridan foydalanish odoblari bir necha qism-ga boʻlinadi.

Naqliyot vositasi halol yoʻl bilan qoʻlga kiritilgan boʻlishi ke-rak.

Boshqacha qilib aytganda, ulov oʻz puliga sotib olingan, egasi rozi boʻlib bergan yoki uni haydovchilik ishiga olgan shaxs yoki muassasa ruxsat bergan boʻlishi lozim.

Naqliyot vositasini haydashdan maqsad shariat ruxsat ber-gan ish boʻlishi lozim.

Bunda harom-harish, dushmanchilik, buzgʻunchilik, gunoh ishlarni qilish niyati boʻlmasligi kerak.

Naqliyot vositasi rasmiy texnik boʻrikdan oʻtgan boʻlishi lo-zim.

Bu ish haydovchining oʻzi va boshqa insonlar salomatligi hamda naqliyot vositasi talofatga uchramasligi uchun zarurdir. Naqliyot vositasini boshqarishda yoʻl harakati qoidalariga rioya qilish.

Yoʻl harakati qoidalariga rioya qilmaslik kishilarga, molu mulkka zarar yetkazishi mumkin. Oʻziga va oʻzgalarga zarar yetkazish esa Islomda harom qilingan.

Naqliyot vositasini sotib olishda niyatni yaxshi qilish.

Bunda mazkur vositani sotib olishda Alloh taoloning iboda-tiga, yaxshi, savobli ishlarga, oila va yaqinlarning xizmatiga ishlata-man, degan goʻzal niyatni qilish kerak. Shunda naqliyot sotib olgan kishi savob ham oladi, maqsadiga ham erishadi.

Naqliyot vositasini sotib olayotganda foydalisini, yaxshisini, tejamlisini sotib olish kerak.

Manmanlik, maqtanish va odamlarga koʻz-koʻz qilish kabi shariatga xilof niyat va amallarni koʻzlamaslik lozim.

Naqliyot vositasini Alloh taoloning neʼmati deb bilish va uning shukrini qilish zarur.

Zotan, musulmon insonga yetgan har bir yaxshi narsa Alloh taoloning neʼmatidir. Naqliyot vositasi ham oʻsha neʼmatlardan biridir. Bu neʼmatning shukri uni toʻgʻri yoʻlda ishlatish bilan yu-zaga keladi.

Naqliyot vositasini pokiza, yaroqli va boʻlar-boʻlmasga urin-tirmagan holda tutish.

Shunda mazkur vosita koʻpga yetadi, uning xizmatidan unumli foydalaniladi. Aks holda, u tezda yaroqsiz holga kelishi, egasi undan mahrum boʻlishi mumkin.

Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning “Ijtimoiy odoblar” kitobidan.

РОЖДЕННЫЕ АПЛОДИСМЕНТАМИ

Ансамбль «Дебют»: более 30 лет творчества, побед и воспитания нового поколения

Не каждый коллектив, созданный при районном Доме культуры, спустя десятилетия становится узнаваемым именем в сфере детской хореографии. Однако, именно так сложилась судьба ансамбля эстрадного и современного танца «Дебют», основанного в 1994 году при Доме культуры «Нурабад».



Основатель и бессменный руководи-тель коллектива — Саидова Е.С. — по-ставила перед собой задачу не только обучать детей технике танца, но и инте-грировать современную хореографию в культурную жизнь региона. При этом кол-лектив развивался не как обычный твор-ческий кружок, а как системный художе-ственный проект. В те годы подобное на-правление было редкостью, поэтому путь «Дебюта» начинался с упорного труда, репетиций до позднего вечера и веры в то, что даже из небольшого города можно выйти на большую сцену.

Название «Дебют» отражает саму суть коллектива. В профессиональной среде слово «дебют» — это первый выход на сцену, момент рождения артиста. Для ансамбля это стало символом появления новых талантов и постоянного обновле-ния.

«Дебют» — это не только начало, но и непрерывное развитие. Коллектив нахо-дится в постоянном поиске новых форм, работает над сценической культурой, стилем и художественной вырази-тельностью, формируя собственный творческий почерк.



также, на фестивале «Қизилқум санат ғунчалари», проходящем во Дворце куль-туры «Фарход», коллектив неизменно занимает призовые места при каждом участии и дважды удостоивался высшей награды — Гран-при.

Особенно значимым стал 2023 год. Ансамбль стал обладателем Гран-при Международного конкурса «Танцуй всей душой – 2023» в Самарканде, а также за-

воевал Гран-при и Супер Гран-при на III Международном конкурсе «Огни Кыргыз-стана», достойно представив Узбекистан.

Наряду с конкурсной деятельностью, коллектив активно участвует в обще-ственной жизни региона. Выступления на районных и областных мероприятиях ста-ли неотъемлемой частью жизни коллек-тива. Ансамбль неоднократно принимает участие в благотворительном проекте «Жемчужины Кызылкумов» в Ташкенте, подтверждая не только высокий художе-ственный уровень, но и социальную значи-мость своей деятельности.

За время существования ансамбль воспитал сотни учеников. Многие вы-пускники продолжают профессиональный путь в хореографии: поступают в про-фильные учебные заведения, работают в творческих коллективах, создают соб-ственные студии и проекты в различных уголках мира.

Сегодня ансамбль «Дебют» — это устойчивая художественная система, где

IFTORLIKNI QANDAY OʻTKAZISH KERAK?

Jahon sogʻliqni saqlash tashkiloti to-monidan Ramazon oyida sogʻlom ovqat-lanish boʻyicha eʼlon qilingan tavsiyalar-da iftorlik paytida isteʼmol qilinishi kerak boʻlgan taomlar sanab oʻtildi. Maʼlum qilinishicha, iftorlik chogʻida sogʻlom va meʼyorida ovqatlanib, quvvatni toʻldirib olish muhim. Roʻzani uchta xurmo yoki suv bilan ochish iftorlikni boshlashning anʼanaviy va sogʻlom yoʻlidir. Xurmo odam tanasidagi koʻplab aʼzolarining toʻgʻri faoliyat koʻrsatishini taʼminlaydi-gan kletchatkaga boy ovzuqa. AQShdagi Cornell University mutaxassislarining yozishicha, ovqatlanishdan oldin suv ichish tanani suyuqlik bilan oziqlantirish-ni eng yaxshi yoʻlidir. “Lekin roʻzani ochibiq birdaniga koʻp suv ichib yubor-maslik lozim. Bu salomatlik uchun xavfli

hisoblangan suv intoksikatsiyasiga olib kelishi mumkin”, — deyiladi xabarda. Organizmni muhim vitaminlar va ovzuqa moddalari bilan taʼminlash uchun iftor-lik taomnomasiga koʻplab sabzavotlarni qoʻshgan afzal. Shuningdek, organizmni quvvat va kletchatka bilan taʼminlaydi-gan donli (yanchilmagan va tozalan-magan) mahsulotlarni isteʼmol qilish maqsadga muvofiq. Pechda yoki grilda pishirilgan yogʻsiz goʻsh, terisiz tovuq va baliq tanovul qilish orqali organizm-nigizni sogʻlom oqsillar bilan boyitish-ingiz mumkin. Umuman olganda, yogʻ va shakarga boy, qovurilgan hamda qayta ishlangan mahsulotlardan tiyilish kerak. Iftorlikdan soʻng koʻp shirinlik yeyish tav-siya etilmaydi. Buning oʻrniga, suvga boy mavsumiy mevalar, jumladan, olma

isteʼmol qilish foydali.

Iftorlik payti uchun 5 ta tibbiy tavsiya

1. Bir stakan suv ichib, iftorlik ovqatini yemay, bir necha daqiqaga kutib turish.
2. Asosiy ovqatni yemasdan oldin sa-latlardan tanovul qilish. Oʻzingizni biroz toʻygandek his qilsangiz, oʻn daqiqa ku-ting-da, soʻngra ovqat yeyishni davom ettiring.
3. Iftorlik taomini shoshmasdan, ohista yeyish. Shunda hazm jarayoni mukammal boʻlib, qorin shishishining oldi olinadi.
4. Iftorlikni yeb boʻlgan za-hoti shirinlik yemaslik. Chunki bu ham hazmni qiyinlashtiradi. Shirinlikni aso-siy taomdan bir necha soat keyin yegan yaxshi.
5. Iftorlik bilan saharlik orasida 1,5 yoki 2 litr suv ichish tavsiya qilinadi. Shunda tanangiz kun davomida yoʻqot-gan suyuqlikning oʻrmini toʻldirib oladi.